

MANDAT TIZIMI YAKUNIDA IORDANIYANING FALASTIN NAZORATIDAGI O'RNI

Abduraxmonov Alisher Ulug'bek o'g'li

TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti magistr 1-kurs.

Tel: +998900293533

e-mail: abdurahmonov0101.a@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10712140>

Annotatsiya. Iordaniya tashkil topganidan beri Falastin bilan bevosita aloqador davlat sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, qiro Abdullohning hududiy siyosati va geosiyosiy strategiyalari sabab, Iordaniya va Falastin masalari asosiy o'ringa chiqdi. Ushbu maqolada, Ikkinchi jahon urushidan keyin, Iordaniyaning Falastin ustidan yuritgan siyosati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Falastin, Iordaniya, yahudiy alyansi, BMT taqsimoti, Arab legioni, ozod zobitlar, G'arbiy sohil, G'azo.

JORDAN'S ROLE IN PALESTINIAN CONTROL AT THE END OF THE MANDATE SYSTEM

Abstract. Since its establishment, Jordan has been recognized as a state directly related to Palestine. Especially due to King Abdullah's territorial policy and geopolitical strategies, the issues of Jordan and Palestine came to the fore. This article examines Jordan's policy on Palestine after World War II.

Keywords: Palestine, Jordan, Jewish Alliance, UN Partition, Arab Legion, Free Officers, West Bank, Gaza.

РОЛЬ ИОРДАНИИ В ПАЛЕСТИНСКОМ КОНТРОЛЕ В КОНЦЕ МАНДАТНОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация. С момента своего создания Иордания была признана страной, напрямую связанной с Палестиной. В частности, благодаря территориальной политике и геополитической стратегии короля Абдаллы, вопросы Иордании и Палестины вышли на первый план. В данной статье рассматривается политика Иордании в отношении Палестины после Второй мировой войны.

Ключевые слова: Палестина, Иордания, Еврейский альянс, Раздел ООН, Арабский легион, Свободные офицеры, Западный Берег, Газа.

Ikkinchi Jahon urushi davomida fashistlar tomonidan qirg'inga uchragan yahudiylar dunyo nigohida mazlum holiga kelib qolgandi. Bu esa, AQSH va Angliyaning milliy yahudiy birligini tuzish va yahudiylarni Falastinga ko'chirish siyosatini ahamiyatini oshirib yubordi. 1942-yilda o'tkazilgan Biltmor konferensiyasidan so'ng, AQSH yahudiylarning eng yaqin hamkoriga aylandi, Yahudiy lobbisining ta'siri ostida harakat qilgan Harri Trumen Biltmor konferensiyasi qarorlarini amalga oshirishga faol kirishdi. ¹

Angliya va AQShning ayri-ayri olib borgan harakatlari natijasi kutilgandek bo'lmagani sabab, yahudiy qochqinlar masalasi BMT tomonidan ko'rib chiqiladigan bo'ldi, bu esa hech

1

“Ürdün-Filistin İlişkilerine Tarihsel Bir Bakış” N. Neşe Kemiksiz

bitmayotgan urushning boshlanish nuqtasi edi. BMTning Falastin yerlarini bo'lish va u yerda Arab va yahudiy birliklarini tashkil etish qarori, dastlab, ikki tomonning ham noroziligiga sabab bo'ldi biroq, keyinchilik, yahudiylar bu taqsimotni qabul qildilar, arablar esa, qurolli to'qnashuvlarga hozirlikni boshladilar. Natijada, 1947-yilda bu o'lkada to'qnashuvlar boshlandi.

Bundan eng manfaatdor o'lka esa, Iordaniya davlati edi. Garchi arab davlati bo'lsa-da, davlat manfaatlari sabab Falastindagi to'qnashuvlardan foyda chiqarishga uringan Iordaniya qiroli Abdulloh Falastin taqsimotidan biroz avval yahudiy alyansi vakili Golda Meyr bilan ko'rishib, Falastin masalasiga Husayn (Falastin ozodlik rahbarlaridan biri) va boshqa arab davrlarining aralashishiga yo'l qo'ymaslik uchun diplomatik va strategik rejalarni muvofiqlashtirishdi. Kelishuvning yana bir sharti shu ediki, Abdulloh taqsimot asosida berilgan Yahudiy yerlariga kirmaslik va'dasi evaziga, alayansni arab yerlari deya berilgan hududlarni Iordaniyaga qo'shib olishga rozilik berishga majbur qildi.

Abdullohning asl maqsadi Iordan daryosining ikki qirg'og'ini o'z davlatiga birlashtirish edi. Shu maqsadda, u Arab davlatlari ligasida o'zining bu rejasini qabul qilinishi uchun harakat qilib ko'rdi va hatto bu harbiy amaliyotning moliyalashtirilishiga ham erishmoqchi edi. 1948-yil aprel oyida Arab davlatlar ligasining yig'ilishida qiroli Abdulloh mandat tizimi yakuniga yetgach, Iordaniya armiyasining (arab legioni) Falastin hududlariga kirishini e'lon qildi. Garchi Misr keskin qarshilik bildirsa-da, Arab legioni qudrati oldida ojiz edi. ²

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, Falastin hududlari nafaqat yahudiylar uchun balki arab davlatlari uchun ham juda ahamiyatli hudud hisoblangan, misol tariqasida ko'rib o'tilayotgan Iordaniya qirolligi ham Falastinni o'z hududlarinig ichkki qismi deb hisoblangan, shu ma'noda bu hududlarni egallashga o'z hukmronligini o'rnatishga harakat qilgan. Hatto, Arab-Isroil urushi natijasida, qochqinga aylanib, Iordaniya hududlariga ko'chib o'tgan falastinliklarga Iordaniya fuqaroligini berib, Falastin milliy birligi g'oyasini yo'qotishga ham uringan, chunki Falastin birligi bevosita Iordaniya qirolligi birligi va mavjudligiga xavf sifatida baholangan. Bu fikrlar isbotini quyida ko'rib chiqamiz.

1950-yilda G'arbiy sohilning anneksiya qilinishidan so'ng, 1954-yilda bu yerda yashovchi falastinliklarga Iordaniya fuqaroligi berildi, ularga parlament quyi palatasidan o'rinlar ajratildi. Bu siyosiy harakat qiroli Abdullohning arabizm ideologiyasi sifatida ko'rilsa-da, aslida Iordaniya qirolligi hududlarini kengaytirish siyosati ham edi. Bu anneksiya o'lkadagi demografik jarayonni tubdan o'zgartirib yubordi, bu hududda falastinliklar aholining uchdan ikki qismini tashkil eta boshladi. Bu esa Iordaniyaning falastinliklarga vakillik qilishiga va ushbu joriy etilgan rejimga xavf tug'dira boshladi. ³

Iordaniyaning assimilatsiya siyosatiga javoban Misr G'azo sektorini Mirsga qo'shib olinganligini, uning haqiqiy egalari falastinliklar ozod davlat qursa, bu hudud ularga qaytarilishini e'lon qildi. Biroq, Iordaniya tomonidan G'arbiy sohilning egallanishi mustaqil Falastin davlati tuzilishiga katta to'siqqa aylandi.

1948-yildagi urushda arablarning mag'lub bo'lishi Arab milliy birligi g'oyalari kuchayishiga va arab o'lkalari bo'ylab keng tarqalishiga olib keldi. Ayniqsa, Misrda amalga

²"Jordan, a country known to have received the biggest flow of Palestinian refugees since 1948 and considered to host 41 perc..." (PDF). Archived from the original (PDF) on 28 August 2017. Retrieved 17 August 2018.

³ "Ürdün-Filistin İlişkilerine Tarihsel Bir Bakış" N. Neşe Kemiksiz

oshirilgan hokimiyat almashinuvi natijasida, hokimiyat tepasiga kelgan jamol Abdul Nosir bu harakatning siyosiy tayanchiga aylandi. Birinchilardan bo'lib, Suriya bilan kelishuv asosida Birlashgan Arab Jumhuriyatining tuzulishi bu g'oylarning amalga oshishi mumkinligini ko'rsatardi. Jamol Abdul Nosirning keyingi faoliyati Falastinga qaratildi. 1959-yilda Arab davlatlari ligasining yig'ilishida Falastin milliy birligi go'yasining ilgari surishini uni bevosita Iordaniya bilan qarshi qarshiga keltirdi. Abdul Nosirning maqsadi Falastinda mustaqil bir birlik qurish edi. Bu Misr, Suriya, Livan va Iordaniyadagi falastinliklar tomonidan tuziladigan kengash edi, bu kengash dastlab, Falastin mustaqilligi uchun kurashishi va keyinchalik, Mustaqil Falastin davlati ta'sischilari bo'lishi nazarda tutilgan edi. Bu rejlar esa Iordaniyada nafaqat G'arbiy sohilning qo'ldan chiqarilishiga balki, qirollik siyosiy rejimiga ham xavf olib keladigan muammo sifatida baholandi.

Bugungi kunimizda eng jiddiy muammo bo'lib turgan Falastin-Isroil muammmosi ishtirokchilari ikkitadan ortiq ekanligi ayon edi. Shu o'rinda Iordaniya ham bu konfliktning bevosita ishtirokchisiga aylandi. Tarixda bu ishtirok Iordaniya qiroli Abdullohning Falastin xalqiga "xiyonati" sifatida e'tirof etilsa, ba'zan esa hoshimiylar qirolligining butun arablarni yagona g'oya atrofida birlashtirish siyosatining bir bo'lagi ekanligi ta'kidlanadi.

Biroq, shu holat aniqki, Falastin davlati tuzilmadi va arab davlatlari orasida hech qanday birlik ham hosil bo'lmadi.

Aksincha, Misr va Iordaniya Falastin nazorati ustidan "raqobatlashuv"ga kirishib strategiyalar ayriligiga borishdi.

Umuman olganda, Iordaniya tarixan va geosiyosiy jihatdan Falastin bilan bog'langan bo'lib, ushbu davlatning amalga oshirgan harakatlari bevosita Falastinga ta'siri bo'laveradi.

REFERENCES

1. "Ürdün-Filistin İlişkilerine Tarihsel Bir Bakış" N. Neşe Kemiksiz
2. <https://arabcenterdc.org/resource/the-jordan-is-palestine-idea-resurfaces-again/>
3. <https://books.openedition.org/ifpo/5014>
4. http://www.kinghussein.gov.jo/his_palestine.html
5. Massad, Joseph A. (11 September 2001). Colonial Effects: The Making of National Identity in Jordan. Columbia University Press. ISBN 9780231505703 – via Google Books.
6. "Jordan, a country known to have received the biggest flow of Palestinian refugees since 1948 and considered to host 41 perc..." (PDF). Archived from the original (PDF) on 28 August 2017. Retrieved 17 August 2018.
7. Israel, Jordan, and Palestine: The Two-State Imperative
8. ASHER SUSSER 2012.
9. Published by: Brandeis University Press